

IX. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK




Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2024- yilning 1-iyul holatiga 15 557 ta kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi. (2023 yilning shu davriga nisbatan 91,2 foizni tashkil qildi).



Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi
2024- yilning yanvar-iyun holatiga (jamiga nisbatan foizda)
(dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz)

2022-yil




2024- yilning yanvar-iyunida kichik tadbirkorlik subyektlarining **YaHM**dagi ulushi 63,5 foizni tashkil etdi.

Kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga 10,2 birlikni tashkil qildi.

2024-yilning yanvar-iyun holatiga 2 422 ta kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarisiz) tashkil qilindi, bu o‘tgan yilning shu davriga nisbatan 108,1 foizga ko‘p demakdir.

2023-yil



2024- yilning yanvar-iyun oylarida yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalarning iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha ulushi, % da


Savdo




Sanoat



Qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligi




Qurilish



Boshqalar



2024-yil





Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

Eng ko'p kichik biznes subyektlari savdo (jami tashkil etilgan subyektlarning 27,3 %), sanoat sohasida (25,8 %), qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi tarmog'ida (25,0 %), qurilishda (3,3 %) va boshqalar (18,6 %) tashkil etilgan.

2024- yilning yanvar-iyun oylarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari tomonidan:

- investitsiyalar hajmi 5 813,9 mlrd. so'mlik (umumiy investitsiyalar hajmidagi ulushi 57,3 %) o'zlashtirildi va 2023 yilning yanvar-iyuniga nisbatan 102,3 % ga o'sdi;

- qurilish ishlari hajmi 2 065,0 mlrd. so'mni (qurilish ishlari umumiy hajmidagi ulushi 91,9 %) va 2023 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 107,1 foizni tashkil qildi;

- sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi 2 976,3 mlrd. so'mni (jami sanoat ishlab chiqarishining ulushi 26,0 %) tashkil qildi;

- xizmatlar hajmi 3 649,1 mlrd. so'mlik ko'rsatilib (jami xizmatlar hajmidagi ulushi 60,3 %) 2023 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 111,8 foizni tashkil qildi;

- chakana tovar aylanmasi 1 315,2 mlrd. so'mni (jami chakana tovar aylanmasining 28,8 %) 2023 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 122,1 foizni tashkil qildi;

- tovarlar eksport hajmi 49,2 mln. AQSH dollari (umumiy eksport hajmining 50,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) eksport qilindi, tovarlar import hajmi 304,4 mln. AQSH dollari (umumiy import hajmining 33,2 %) miqdorida mahsulotlar (tovar va xizmatlar) import qilindi;

- avtomobil transportida 15 564,8 ming tonna yuk tashilib (jami avtomobil transporti yuk tashishdagi ulushi 92,4 %) 2023 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 96,3 foizni tashkil qildi;


- avtomobil transportida 42 851,3 ming yo'lovchi tashilib (umumiy yo'lovchi tashishdagi ulushi 94,6 %) 2023 yilning yanvar-iyuniga nisbatan o'sish sur'ati 101,2 foizni tashkil qildi;

2024- yilning yanvar-iyunida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning YaHMdagi ulushi – 68,3 foizni, sanoatda – 26,0 foizni, qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligida – 98,9 foizni, qurilishda – 91,9 foizni, eksportda – 50,2 foizni tashkil qilgan.



Viloyat bo'yicha kichik tadbirkorlikda sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish bo'yicha asosiy iqtisodiy ko'rsatkichlari
(umumiy hajmiga nisbatan mlrd. so'mda)

2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Jizzax shahri (1157,1 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (348,6 mlrd. so'm) va Forish (260,7 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.

2024- yil yanvar-iyun oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati



Jizzax viloyati bo'yicha eng ko'p xizmatlar hajmi Jizzax shahri (1 316,8 mlrd. so'm), Sharof Rashidov (576,5 mlrd. so'm), G'allaorol (337,7 mlrd. so'm) va Zomin (293,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keldi.



2024- yil yanvar-iyun oylarida iqtisodiy ko'rsatkichlarda kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha ulushi, % da

	Sanoat	Qurilish	Xizmatlar	Qishloq xo'jaligi
Jizzax viloyati	26,0	91,9	60,3	98,9
<i>shahar:</i>				
Jizzax	53,0	93,7	44,3	98,9
<i>tumanlar:</i>				
Arnasoy	100,0	90,4	79,8	99,9
Baxmal	98,5	95,6	73,2	99,9
G'allaorol	1,5	92,9	74,8	99,9
Sharof Rashidov	99,9	100,0	87,2	99,4
Do'stlik	22,1	91,1	73,5	99,9
Zomin	38,2	66,9	69,1	92,7
Zarbdor	77,6	95,3	74,9	99,9
Zafarobod	13,6	83,5	76,4	99,6
Mirzacho'l	99,1	88,3	61,8	99,9
Paxtakor	44,7	96,4	59,6	99,1
Forish	60,8	94,6	82,5	99,9
Yangiobod	100,0	79,8	83,9	99,7

Joriy yilning yanvar-iyun oylarida viloyatda kichik tadbirkorlikning iqtisodiy ko'rsatkichlari sohalar bo'yicha tahlil qilinganida:

- sanoat tarmog'ida kichik tadbirkorlik Zafarobod (13,6 %), G'allaorol (1,5 %) tumanlarida kam, Arnasoy (100,0 %), Yangiobod (100,0 %), Sharof Rashidov (99,9 %) tumanlarida yuqori ulushni tashkil etadi.

- qurilish tarmog'ida kichik tadbirkorlik ulushi viloyatga nisbatan Zomin tumanida (66,9 %), Yangiobod tumanida (79,8 %) kam foizni qolgan tumanlarda esa yuqori o'ringa ega.

- xizmatlar sohasida kichik tadbirkorlik ulushi Jizzax shahrida (44,3 %), Paxtakor tumani (59,6 %) qolgan hududlarga nisbatan kam bo'lishiga qaramasdan, hajmi jihatidan qolgan hududlardan yuqori o'ringa ega.

- qishloq xo'jaligi tarmog'ida viloyat miqyosida yaratiladigan qo'shimcha qiymatning barchasi kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan amalga oshiriladi.